Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320022

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI KESIMIDA FERMER XO'JALIKLARINING QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI RIVOJLANISH DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH

MURODOV JAHONGIR CHORIYEVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy statistika" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.
tel: +99897-330-25-63
elektron pochta: jmurodov2019@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida fermer xo'jaliklarining qo'shilgan qiymat zanjiri rivojlanish darajasi statistik va iqtisodiy tahlil asosida baholanadi. Tadqiqotda agrar sektorda ishlab chiqarishdan tortib qayta ishlash va realizatsiyagacha bo'lgan bosqichlarning hududiy farqlari o'rganildi. Ekonometrik va indeks yondashuvlar asosida qo'shilgan qiymat zanjiri rivojlanish indeksi shakllantirildi. Natijalar hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini va qayta ishlash sanoati rivojlangan hududlarda qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *fermer xo'jaliklari, qo'shilgan qiymat zanjiri, agrar sektor, hududiy rivojlanish, statistik baholash, logistika va ta'minot zanjiri, iqtisodiy ko'rsatkichlar, qishloq infratuzilmasi, eksport salohiyati, mahsulot diversifikatsiyasi, qiymat qo'shish jarayoni, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish.*

Kirish

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, fermer xo'jaliklari ushbu tarmoqning asosiy ishlab chiqaruvchi subyektlari hisoblanadi. So'nggi yillarda agrar siyosatda xomashyo yetishtirishdan yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga o'tish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

"Kelgusi yili iqtisodiyotda 6,6 foiz o'sishni ta'minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo'yicha qattiq ishlansa, bu ko'rsatkichni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar bor"[1]

Qo'shilgan qiymat zanjiri (Value Added Chain) fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Hududlar kesimida ushbu zanjir rivojlanish darajasini baholash iqtisodiy nomutanosibliklarni aniqlash va siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi**.**

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va YaIM tarkibida sezilarli ulushga ega. Biroq uzoq yillar davomida agrar sektor asosan

Published: 05.06.2026

Cite this article: Murodov Jahongir Choriyevich (2026). O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida fermer xo'jaliklarining qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlanish darajasini statistik baholash. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320022

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

xomashyo yetishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, qo‘shilgan qiymatning asosiy qismi qayta ishlash va xizmatlar sektorida shakllangan.

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta’minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi”[2]

So‘nggi yillarda davlat siyosatida “xomashyodan tayyor mahsulotga o‘tish” strategiyasi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu esa fermer xo‘jaliklarining qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida fermer xo‘jaliklarining qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanish darajasini statistik baholashga qaratilgan**.** Statistik tahlil (o‘sish sur’atlari, dinamik qatorlar), taqqoslash usuli (hududlararo farqlarni aniqlash), indeks usuli, korrelyatsiya tahlili (omillar bog‘liqligini baholash) usullaridan foydalanildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida fermer xo‘jaliklarining qo‘shilgan qiymat zanjiri (QQZ) rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar, avvalo, infratuzilma rivoji, logistika imkoniyatlari, qayta ishlash quvvatlari hamda bozor institutlarining shakllanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

“Fermer xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat xaridi tartibida realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo‘jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar” [3]. Xususan, iqtisodiy jihatdan nisbatan rivojlangan hududlarda fermer xo‘jaliklari nafaqat xomashyo yetishtirish, balki uni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish bosqichlarida ham faol ishtirok etmoqda. Bu esa qo‘shilgan qiymatning katta qismi aynan shu hududlarda shakllanishiga olib kelmoqda. Aksincha, ayrim chekka hududlarda fermer xo‘jaliklari asosan birlamchi ishlab chiqarish bilan cheklanib qolayotganligi sababli qo‘shilgan qiymat zanjirining past bo‘g‘inlarida qolib ketmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hamda uning hududlari bo‘yicha 2015–2024 yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlar dinamikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik hududlarda o‘sish va tebranishlar (volatillik) kuzatilgan, ayrim yillarda esa keskin pasayish yoki juda yuqori o‘sish sur’atlari qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar 2015 yilda 103,5 foizdan boshlanib, 2017–2018 yillarda pasayish (92,5–93,1 foiz) kuzatilgan. Bu davr eng past nuqtalardan biri

hisoblanadi. 2019 yildan boshlab esa keskin tiklanish boshlanib, 110,5 foizga yetgan. Keyingi yillarda barqaror o‘sish saqlangan (105–106 foiz atrofida), 2024 yilda esa 103,5 foiz qayd etilgan.

Umuman olganda, respublika darajasida “pasayishdan tiklanish va barqarorlashuv” tendensiyasi mavjud. Eng yuqori o‘sish kuzatilgan hududlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 2019 yilda 125,4 foiz (eng yuqori nuqtalardan biri), Jizzax viloyati – 2019 yilda 127,3 foiz, Sirdaryo viloyati – 2019 yilda 125,6 foiz, Surxondaryo viloyati – 2019 yilda 123,8 foiz, Farg‘ona viloyati – 2018–2020 yillarda 116–119 foiz oralig‘ida yuqori barqaror o‘sish mavjud. Ayrim hududlarda, jumladan, Toshkent viloyati – 2017 yilda 77,2 foiz (eng pastlardan biri), 2019 yilda ham 83,7 foiz, Xorazm viloyati – 2018 yilda 75 foiz (juda past ko‘rsatkich), Samarqand viloyati – 2018 yilda 82,1 foiz, Surxondaryo va Sirdaryo – 2018 yilda 81–85 foiz oralig‘ida keskin pasayishlar ham kuzatilgan (1-jadval)

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sish sur’ati93

(% hisobida)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar									
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
	O‘zbekiston Respublikasi	**103,5**	**102,5**	**92,5**	**93,1**	**110,5**	**105,6**	**106,2**	**105**	**105,8**	**103,5**
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	114,2	110,1	98,7	90,8	125,4	96,9	99,4	104,9	104,3	105,4
2.	Andijon viloyati	103,5	102,1	91,5	122,1	107,9	99,8	106	103,8	100,6	104
3.	Buxoro viloyati	107,1	108,7	102,8	99,3	105,7	104,5	111,4	108,1	106,1	96,5
4.	Jizzax viloyati	102,5	101,5	93,9	88,1	127,3	103,1	102,7	94,9	114,4	105,5
5.	Qashqadaryo viloyati	102,5	103	97,8	84,5	102,4	102,7	101,9	104,2	109,7	105,2
6.	Navoiy viloyati	104,4	99	99,8	92	106	107,6	109,1	106,2	97,9	107
7.	Namangan viloyati	104,2	103,3	98,3	97,9	109	116,1	120,9	110,9	112,4	101,6
8.	Samarqand viloyati	106,8	109,7	98,7	82,1	112,3	109,4	106,8	99,4	105,1	104,1
9.	Surxondaryo viloyati	100,2	94,7	94,1	81	123,8	111,6	105,3	96,5	108,3	106,5
10.	Sirdaryo viloyati	100,6	100,6	81,4	85	125,6	109,3	102,1	104,9	101,3	96,9
11.	Toshkent viloyati	98,8	91,5	77,2	92,7	83,7	86,8	98,2	118,4	98,6	100,5
12.	Farg‘ona viloyati	101,5	100,4	79	116,8	116,6	119,8	105,8	110,4	107,5	107,5
13.	Xorazm viloyati	103,5	105,1	89,4	75	118,9	97,3	102,5	107,1	102,6	101,9
14.	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

93 www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari bilan integratsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda fermer xo‘jaliklarining daromadliligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada yuqori. Bu holat vertikal integratsiya va kooperatsiya jarayonlarining muhimligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, logistika infratuzilmasi (omborlar, sovutkichlar, transport tarmoqlari) yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda mahsulot yo‘qotishlari yuqori bo‘lib, bu qo‘shilgan qiymat zanjiri samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkich 2015 yilda 30,7 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda 26 gacha pasaygan. Bu davr eng past nuqtalardan biri hisoblanadi. 2019 yildan boshlab tiklanish boshlangan (27,9), 2022 yilda esa 31,4 ga yetgan eng yuqori darajalardan biri qayd etilgan. 2023–2024 yillarda esa ko‘rsatkich biroz tebranib, 30 atrofida barqarorlashgan. (2-jadval)

2-jadval

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi94

(% hisobida)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar									
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
	O‘zbekiston Respublikasi	30,7	29,7	29,3	26	27,9	28,2	29,3	31,4	30,2	30,6
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30	28,3	28,2	27,1	33,6	32	30,8	32,6	30,3	31
2.	Andijon viloyati	29	29,2	28,4	30,2	32,2	32,5	32,2	34,8	32,1	32,7
3.	Buxoro viloyati	24,9	25,8	27,5	26,4	25,9	26,7	29,5	32,1	30,2	28,6
4.	Jizzax viloyati	27,7	26,1	27,2	22,2	27,8	27,2	26,8	28,3	26,8	28,1
5.	Qashqadaryo viloyati	28,7	28,2	30,8	25,2	26,1	24,9	26,8	27,5	26,2	27
6.	Navoiy viloyati	21,1	20,2	21,4	18,4	19,4	20,2	20,6	23,2	21,5	22
7.	Namangan viloyati	28,7	27,9	29,1	27,5	27,8	30,5	34,7	38,9	39,4	38,5
8.	Samarqand viloyati	40,5	40,3	40,2	34,8	34,8	36,1	37,4	38,2	38,2	39,4
9.	Surxondaryo viloyati	26,7	24,2	23,8	18,3	23,6	24,1	24,9	25,5	24,9	25,9
10.	Sirdaryo viloyati	38,7	38,2	36,7	28,7	34,6	35,8	36,9	39,4	35,5	33,6
11.	Toshkent viloyati	32,7	28,9	25	22,4	19,8	16,5	15,9	18,5	16,8	16,6
12.	Farg‘ona viloyati	30,9	29,2	27,1	25,5	30,4	34,9	37,1	40,5	40,7	42,6
13.	Xorazm viloyati	30,8	29	26,3	21,9	25,1	24,3	24,5	27,5	25,4	24,7
14.	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

Muhokama

Regression tahlil natijalari asosida aniqlanishicha, qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga investitsiyalar hajmi,

94 www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

texnologik ta’minlanganlik darajasi, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati va eksport salohiyati kiradi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etgan fermer xo‘jaliklarida mahsulot sifati va qo‘shilgan qiymat darajasi yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Bundan tashqari, institutsional omillar, jumladan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va konsalting xizmatlari mavjudligi ham qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Hududlar kesimida bu omillarning notekis taqsimlanganligi esa umumiy natijalarda farqlarni yuzaga keltirmoqda.

Natijalar boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan hamohang bo‘lib, ular ham qishloq xo‘jaligida yuqori qo‘shilgan qiymatga erishish uchun qayta ishlash va marketing bosqichlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham fermer xo‘jaliklarini faqat ishlab chiqaruvchi sifatida emas, balki to‘liq qiymat zanjirining faol ishtirokchisi sifatida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi muammolar ajratib ko‘rsatildi:

- hududlar o‘rtasida qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishidagi nomutanosiblik;
- qayta ishlash sanoatining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- logistika infratuzilmasidagi kamchiliklar;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari QQZni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni taklif etadi: hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, agroklasterlarni rivojlantirish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, zamonaviy saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini yaratish hamda eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish.

Umuman olganda, fermer xo‘jaliklarining qo‘shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini kengaytirish qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida fermer xo‘jaliklarining qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanish darajasi sezilarli farqlarga ega. Statistik va ekonometrik tahlillar quyidagi xulosalarni beradi:

- logistika va qayta ishlash tarmoqlari qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishining asosiy determinantlari hisoblanadi;
- hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda;
- eksport salohiyati QQZni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Tavsiyalar:

- qayta ishlash sanoatini hududlarda kengaytirish;
- logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- fermer xo‘jaliklarini agroklaster tizimiga integratsiya qilish;
- hududiy qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 26.12.2025 y. // President.uz.. – URL: https://president.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2004 yil 26 avgust.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasiining rasmiy sayt.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti